

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4 (2)

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	16
PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	25
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	30
Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	42
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	50
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	55
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	60
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	65
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	70
Xamidova Zarifa Urol qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	74
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI.....	77
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	84
Dadajonova Madina Ravshan qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	89
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	94
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	100
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS' GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN.....	105
Maxmudov Rahimjon	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH.....	109
Abduraxmonova Gulmira	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	114
Teshabayev Dilmurod Boxodir o'g'li	



FARG ‘ONA VILOYATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI.....	120
Tuychieva Odina Nabiyevna	
INDICATORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE "GREEN" ECONOMY.....	131
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
ECONOMIC EFFICIENCY OF RENEWABLE ENERGY SOURCES: THE CASE OF SOLAR AND WIND ENERGY	140
Hayitov Jamshid Kholboyevich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICH LARI.....	144
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	



KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Ortiqov Husan Usmonaliyevich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kreditlash mexanizmining ilmiy-nazariy asoslari, xususan ushbu atamaning iqtisodiy adabiyotlarga kirib kelishiga nima turtki bo'lganligi, kreditlash mexanizmining turli iqtisodiy munosabatlarda tutgan o'rni, ta'sir doirasi kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, kreditlash mexanizmining kelib chiqishi haqidagi iqtisodiy olimlarning qarashlari, ulardagi qarama-qarshiliklar tahlili ko'rsatilgan. Maqolada kreditlash mexanizmining rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish orqali uning elementlariga to'xtalib o'tiladi. Shundan kelib chiqib, tijorat banklarida kreditlash mexanizmidagi muammolar va ularning yechimlari hamda qarama-qarshiliklar tahlili keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kredit mexanizmi, kreditlash mexanizmi, xo'jalik mexanizmi, pul mexanizmi, moliya mexanizmi, pul-kredit mexanizmi, moliya-kredit mexanizmi, akkumulyatsiya mexanizmi, iqtisodiy ta'sir mexanizmi, moliyaviy ko'rsatkichlar, kreditlash mexanizmi elementlari.

Abstract: This article examines the scientific and theoretical foundations of the lending mechanism, particularly the factors that led to the emergence of this concept in economic literature, as well as its role and scope of influence within various economic relations. The views of economists on the origin of the lending mechanism and the contradictions among them are also analyzed. The article explores the stages of development of the lending mechanism and highlights its key elements. Based on this, the problems within the lending mechanism in commercial banks, along with their solutions and existing contradictions, are discussed.

Keywords: credit mechanism, lending mechanism, economic mechanism, monetary mechanism, financial mechanism, monetary-credit mechanism, financial-credit mechanism, accumulation mechanism, economic impact mechanism, financial indicators, elements of the lending mechanism.

Аннотация: В данной статье рассматриваются научно-теоретические основы кредитного механизма, в частности причины появления данного понятия в экономической литературе, а также его роль и сфера влияния в различных экономических отношениях. Проанализированы взгляды экономистов на происхождение кредитного механизма и существующие между ними противоречия. В статье исследуются этапы развития кредитного механизма и раскрываются его основные элементы. На этой основе представлены проблемы кредитного механизма в коммерческих банках, а также пути их решения и анализ существующих противоречий.

Ключевые слова: кредитный механизм, механизм кредитования, хозяйственный механизм, денежный механизм, финансовый механизм, денежно-кредитный механизм, финансово-кредитный механизм, механизм аккумуляции, механизм экономического воздействия, финансовые показатели, элементы кредитного механизма.

KIRISH

Kreditlash mexanizmi mazmun va mohiyatini anglash va tushunish uchun, eng avvalo, ushbu mexanizm iqtisodiyotning qaysi bosqichida vujudga kelganligi, qaysi iqtisodiy omillar turtki bo'lganligi, nima uchun aynan "kreditlash" emas, unga "mexanizm" atamasini qo'shib iqtisodiy atamaga aylantirilganligi haqida chuqurroq tahlil qilishga to'g'ri keladi.

Kreditlash mexanizmi iqtisodiyotda kredit mexanizmi vujudga kelishi bilan bog'liq. E'tibor bering, "kredit mexanizmi" va "kreditlash mexanizmi" bu o'zaro bog'liq, lekin har xil elementlardan iborat yoki iqtisodiyotning kredit munosabatlari bo'g'inida harakat qiluvchi mexanizmlardir. Ya'ni, kreditlash mexanizmi kredit mexanizmining bir bo'g'ini sifatida harakat qiladi. Kredit mexanizmi iqtisodiy munosabatlarning dastlabki rivojlanish bosqichlarida, xususan xo'jalik, pul, moliya, pul-kredit va moliya-kredit mexanizmlarining rivojlanish bosqichlarida vujudga kelgan.

Kredit mexanizmi va kreditlash mexanizmi atamasini ta'riflash uchun iqtisodiyotning turli davrlarida rivojlangan iqtisodiy munosabatlarni birma-bir tahlil qilishni taqozo etadi, chunki kredit mexanizmi aynan shu munosabatlarning birida yoki tarkibida vujudga kelgan.

Tijorat banklari tomonidan kredit qo'yilmalarini yanada oshirishga ayrim muammolarning mavjudligi salbiy



ta'sir qilmoqda. Tijorat banklarida muddati o'tgan kreditlarning umumiy kredit summasidagi ulushining oshishi kreditlash mexanizmi va uning elementlarini takomillashtirish zaruriyatini dolzarb qilib qo'yimoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kredit munosabatlari subyektlari iqtisodiy aloqalari bilan birgalikda tahlil qilinayotgan bo'lsa, "kredit-hisob-kitob mexanizmi" tushunchasidan foydalanish ham mumkin va bu birmuncha maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayrim hollarda "kredit mexanizmi" tushunchasi bilan birgalikda "kreditlash mexanizmi" atamasi ham qo'llaniladi. Bu terminning qo'llanilishiga "kredit mexanizmi" tushunchasining ayrim amaliy faoliyat sohaslarini o'rganishda keng ma'noni anglatishi asos hisoblanadi. Odatda, kreditlash mexanizmi deyilganda, kreditlash shart-sharoitlarini belgilovchi elementlarning yig'indisi tushuniladi. U o'z mazmun jihatidan "kredit mexanizmi" tushunchasiga qaraganda bir muncha "tor" ma'noni anglatadi. Shu bilan birga, kredit mexanizmining tarkibiga kiradi va bu fikr ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan ham tan olingan.

70-yillarning boshida O. I. Lavrushin o'zining "Iqtisodiy rag'batlar tizimida kredit" nomli ishida kredit chegaralari kengayishi, ssuda berish va qaytarishning ta'sirchan mexanizmini izlab topish, jamiyatda iqtisodiy ishlab chiqarishni rag'batlantirishda kredit rinchaglarining rolini oshirish deb qayd etadi. U kreditlash mexanizmini kredit mexanizmining amal qilinish jarayonining qismi deb qaraydi.

R. V. Korneevaning fikricha, kredit mexanizmi harakati xo'jalikning shunday sharoitlarini yaratishga yo'naltirilishi kerakki, unda korxonalar yoki tarmoqning o'zi ishlab chiqarishni kengaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash uchun qo'shimcha resurslarga qiziqishi kerak.

N. I. Valenseva va I. D. Mamanova bank kreditidan foydalanish samaradorligini tadqiq qila turib, kreditlash mexanizmini: "Kredit berish va so'ndirishni rejalashtirish, uning maqsadli yo'nalishi ustidan nazorat bilan bog'liq qarorlar majmuasi" sifatida izohlaydi.

Rus tadqiqotchilaridan V. G. Levitan va Ya. S. Myazova o'z o'quv qo'llanmalarida kredit mexanizmini kreditlash jarayoni yoki bosqichlari deb talqin qilib, kredit arizalari portfelini shakllantirish, qarz oluvchi bilan muzokaralar o'tkazish, kredit layoqatligini baholash, kredit ajratishni ma'qullash, kredit shartnomasini tuzish, kredit marketingi va kreditni so'ndirish kabi bosqichlarga bo'lib o'rganishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada kredit mexanizmi va kreditlash mexanizmini farqlash maqsadida turli iqtisodiy davrlardagi iqtisodiy munosabatlarning tarixiy shakllanishi guruhlash orqali bir chizmaga keltirildi. Shuningdek, iqtisodiyot yo'nalishlarida taniqli namoyondalarning qarashlari tahlili asosida kreditlash mexanizmining kelib chiqishi va uning rivojlanishiga ta'sir qilgan omillar qiyosiy tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aytish joizki, iqtisodiy munosabatlar, eng avvalo, mulkchilik munosabatlaridan kelib chiqqan. Chunki aynan mulkiy munosabatlarda mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish jarayonlari vujudga kelgan. Bu esa keyinchalik pul va kredit munosabatlarida o'zining eng rivojlangan bosqichida namoyon bo'lgan.¹ Mulchilik munosabatlarsiz iqtisodiyotning biron-bir tizimi yoki bosqichini anglab bo'lmaydi.

Mulkchilik munosabatlarida neoklassik nazariya namoyondalari Irving Fisher va John Maynard Keynes fikricha, mulkchilik munosabatlari kelajakda daromadning kutilishi sifatida talqin qilinadi. Ularning fikricha, mulkchilik munosabatlari kapital ko'rinishida daromad keltiruvchi mablag'lar jarayoni sifatida tushuniladi. Mulkiy munosabatlarda mulkni tasarruf etishda uni sotish jarayoni aynan pul munosabatlarini keltirib chiqaradi.

1920-yildan hozirgi kunlarni o'z ichiga oluvchi pulning keynschilik nazariyasi vakili John Maynard Keynes (1883–1946-yillar) fikricha, iqtisodiyotda pul aylanishining tezligi daromad darajasi, foiz me'yori va iqtisodiyotdagi muhim parametrlarning o'zgarishi bilan birgalikda o'zgaruvchan miqdor sifatida qaraladi. Keynschilik nazariyasiga ko'ra, foiz me'yori milliy iqtisodiyotda bandlik darajasi va mahsulot ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi pul aylanmasi shartlari orqali investitsiya siyosatiga ta'sir qiladigan asosiy omil hisoblanadi.

Keynschilik nazariyasi vakillarining pul aylanish tezligiga faol ta'sir qiluvchi foiz me'yori haqidagi qarashlarini kredit munosabatlari bilan bog'lash mumkin. Chunki kredit pul massasi hajmiga, to'lov aylanmasiga va pul aylanish tezligiga faol ta'sir ko'rsatadi. Bu yerda foiz me'yori muhim rol o'ynaydi: past foiz stavkalari ishlab chiqarishni kengaytiradi va oshiradi, yuqori foiz stavkalari esa ishlab chiqarishni "bo'g'adi".² Kredit bo'sh pul resurslarining bir tarmoqdan ikkinchi tarmoqqa yoki daromad keltiruvchi tarmoqqa qayta taqsimlanishini ta'minlaydi. Bo'sh pul resurslari ishlab chiqarish jarayonida qo'shilgan qiymat hisobiga shakllanadi. Ishlab chiqarish jarayonida jamg'arilgan yoki shakllangan qo'shilgan qiymat keyinchalik pul bozorida "ssuda kapitali", hozirgi iqtisodiy tadqiqotlarga tayanib aytganda, "kredit resurslari"ga aylanadi.

1 O'Imasov A. Iqtisodiyot asoslari. T.: Mehnat, 1997. 5 bob.

2 L.I.Yuzvovich, Ye.G.Knyazeva, Yu.V.Istomina. Finans i kredit: uchebnoye posobiye. Yekaterinburg, 2019. str. 218.

Tadqiqotchilar kredit munosabatlari nazariyasini ikkiga yoki uchga bo'lib o'rganadilar. Ayrim adabiyotlarda tadqiqotchilar kredit munosabatlarini o'rganish maqsadida kreditning naturalistik va kapital yaratuvchi nazariyalariga e'tibor berishadi, ba'zilari esa ekspansionistik kredit nazariyasini ilgari suradi.

XX asr boshlarida kreditning kapital yaratuvchi nazariyasini Joseph Schumpeter va John Maynard Keynes o'z tadqiqotlari bilan kengaytirgan.³ Ularning fikricha, kredit iqtisodiyotda "ekspansionistik", ya'ni kengaytiruvchi vazifani bajarib, bir tarmoqdan ikkinchi tarmoqqa harakatlanib kapital yaratadi. Ekspansionistik kredit nazariyasining muhim xususiyatlaridan biri shuki, ushbu nazariya iqtisodiy o'sish yo'nalishlarini ko'rsatib bergan. Nazariya birinchi marta kredit resurslarini davlat, aholi va korxonalarining bo'sh pul mablag'lariga bo'ldi va "inflyatsion kredit" yoki "kredit inflyatsiyasi" atamasini qo'lladi. Kredit inflyatsiyasi aholi va tadbirkorlar uchun asossiz va o'zini oqlamagan kredit mablag'larini ajratilishi natijasida ma'lum bir tovarlar va xizmatlarga talabning oshishiga olib kelishi mumkin, bu esa talab inflyatsiyasi uchun sharoit yaratadi.

Yuqorida tadqiqotimizda iqtisodiyotning mulkiy, pul va kredit munosabatlarini birma-bir tahlil qilib chiqdik. Kredit mexanizmi ushbu munosabatlarining kredit munosabatlari qismida vujudga kelgan bo'lsa-da, lekin u iqtisodiyotning mulkiy va pul munosabatlarida shakllanishni boshlagan.

Ushbu tahlil qilib o'tilgan iqtisodiy munosabatlar turli xil iqtisodiy mexanizmlar ta'siri doirasida rivojlangan va kengaygan. Quyidagi chizmada buni yaqqol ko'rish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Turli iqtisodiy sharoitlarda iqtisodiy munosabatlarning bog'liqligi⁴

Chizmada ko'rib turganingizdek, yuqorida muhim iqtisodiy munosabatlarni turli iqtisodiy mexanizmlar bilan bog'lagan edik. Shu qatorda kredit mexanizmi ham shu iqtisodiy munosabatlar asosida shakllangan. Kredit mexanizmi tushunchasini anglash uchun uni faqat bozor iqtisodiyoti sharoitida talqin qilish kifoya qilmaydi. Yuqorida belgilab o'tganimizdek, kredit mexanizmi iqtisodiy tizimlarning deyarli barchasida ishtirok etib, iqtisodiy o'sishning muhim mexanizmlaridan biri bo'lgan.

Maqolamizning avvalida "kredit mexanizmi" va "kreditlash mexanizmi" o'rtasidagi farqni anglab olgan edik. Ya'ni, kreditlash mexanizmi kredit mexanizmining tarkibiy elementlaridan biri deb aytdik. Lekin ba'zi xorij adabiyotlarida kredit mexanizmi va kreditlash mexanizmini bir atama sifatida qo'llashmoqda. Xususan, kredit mexanizmi, umuman olganda, kredit ajratish uchun turli xil zamonaviy bank usullarida arzon kredit resurslarini jalb qilish, uni maqbul bank foiz stavkasini qo'llagan holda iqtisodiyotning bank uchun foyda keltiradigan tarmoqlariga yo'naltirishdagi tadbir va usullarni o'z ichiga oluvchi mexanizm sifatida qaraladi. Kreditlash mexanizmi esa uning muhim va asosiy elementlaridan biri sifatida mexanizmi to'ldirib turadi. Kreditlash mexanizmi mijozni bankka jalb qilish yoki uning murojaatini ko'rib chiqishdan boshlab, to'ldirilgan

3 R.M.Nurtdinov. retsenzenti: G.A.Suldina, V.A.Suslov. Finansy i kredit. Uchebnoye posobiye chast II. Kamskiy izdatelskiy dom 2010 g. str. 22.

4 S.Norqobilov, H.Ortiqov. Kredit mexanizmi va uning elementlari. Uslubiy qo'llanma. "Farg'ona" nashriyoti, 2012-yil. 170-bet.



kredit mablag'lari to'liq qaytarilungacha bo'lgan jarayondagi tadbirlar va usullarni o'z ichiga oluvchi mexanizm sifatida tushuniladi.

Bu mexanizmlarni bir-biridan aniq farqlab olish uchun "element" va "tarkibiy qism" tushunchalarini yoritish maqsadga muvofiq. Tizim yoki mexanizm elementi — bu tizim ichida ma'lum funksiyalarni bajaradigan asosiy birlikdir. Masalan, biologik tizimda element organizmning hayotiy funksiyalarini saqlab turishda ishtirok etadigan hujayra bo'lishi mumkin. Har bir element butun tizimning ishlashiga hissa qo'shadi va, qoida tariqasida, o'ziga xos xususiyatlar hamda rollarga ega.

Mexanizm yoki tizimning bir qismi esa kengroq tushunchadir. Bu umumiy funksiyani bajarish uchun birlashtirilgan elementlar guruhi deb talqin qilinadi. Shunday ekan, mexanizm yoki tizim elementi — bu asosiy birlik bo'lib, tizim nimadan tashkil topganligini anglatadi, qism esa ana shu elementlardan shakllanganligini bildiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Alohida ta'kidlash joizki, kreditlash mexanizmi bu kreditlash jarayoni, kreditlash bosqichlari yoki kreditlash amaliyoti emas, balki aniq elementlardan tashkil topgan kredit mexanizmining tarkibiy qismidir. Agar kreditlash mexanizmini kreditlash amaliyoti yoki kreditlash bosqichlari sifatida talqin qiladigan bo'lsak, bu juda tor doiradagi terminga aylanadi hamda bunda faqat qarz oluvchining arizasidan boshlab, kredit mablag'lari ssuda hisobraqamidan chiqib ketishigacha bo'lgan jarayonni tasavvur qilish mumkin, lekin bunday talqin qilish to'g'ri emas. Maqolamizning yuqorisidagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi mulohaza va takliflarni berib o'tamiz:

- Bugun tijorat banklarida garov bilan bog'liq jarayonlar bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Xususan, kadastr tizimi "UZKAD" tizimiga o'tganligi banklar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda, banklardagi dasturlash tizimi bilan integratsiya jarayoni esa izchil yakuniga yetkazilmoqda. Banklarda kredit ajratilayotganda kredit hujjatlaridagi garov bilan bog'liq shartnomalarda aniqlikni oshirishga qaratilgan ishlar olib borilmoqda, bu esa keyinchalik kredit muammoga aylangan holatlarda mulkni auksionga chiqarish jarayonlarini yanada soddalashtirishga xizmat qilmoqda. Buning uchun banklardagi dasturlash tizimini "UZKAD" tizimi, "davreestr.uz" platformasi va "garov.uz" platformasi bilan integratsiyalashuvni to'liq amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

- Ma'lumki, 2025-yilning 1-mayidan boshlab ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan banklarga auksionda sotilmasdan qarzдорliklarni so'ndirish evaziga bank balansiga olingan mol-mulkarni bozor qiymatida to'g'ridan-to'g'ri sotishga, shu jumladan, kredit, bo'lib-bo'lib to'lash, lizing shartnomalari yoki qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar orqali sotishga ruxsat etilgan. Oxirgi yillarda xususiy banklarda ham muammoli kreditlar salmog'ining keskin o'sishini inobatga olib, ushbu tartibni, ya'ni imtiyozni xususiy banklarga ham qo'llash maqsadga muvofiq bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-sonli Farmoni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7444738>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-apreldagi "Qarzdorlik hisobiga banklar balansiga olingan mol-mulklar realizatsiyasini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-142-sonli qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7479146>
3. Банковское дело: учебное пособие. В.Г.Левитан, Я.С.Мязова. – Самара: Издательство Самарского университета, 2021 г.;
4. С.Е.Гриценко. Деньги, кредит, банки: теория и практика. Учебное пособие – М.: Мир науки. 2021 г.;
5. Л.И.Юзвович, Е.Г.Князева, Ю.В.Истомина. Финансы и кредит: учебное пособие. Екатеринбург. 2019 г.;
6. Н.Н.Мокеева, А.Е.Заборовская, В.Э.Фрайс. Деньги и денежно-кредитная система: учебное пособие. Екатеринбург. 2019 г.;
7. А.М.Орехова ва И.Г.Чаплигин. Категория собственности и экономическая теория. Москва. 2018 г.;
8. Ткачева В.Н. Теория кредита и его роль в современной экономике. Всероссийский заочный финансово-экономический институт, 2018 г.;
9. Т.Караченцева. Теория кредита и его функциональная роль в экономике. Научные публикации. 2006 г.;
10. Тожибоева Д. Иқтисодий муносабатларнинг икки томони ва уни талқин этишнинг ривожланишида неинституционал ёндашувнинг роли. Иқтисод ва молия журнали. 2018 йил;
11. Р.М.Нуртдинов. рецензенты: Г.А.Сульдина, В.А.Суслов. Финансы и кредит. Учебное пособие част II. Камский издательский дом 2010 г.;
12. О.К.Иминов. "Кредитный механизм в современных условиях" Ташкент. 2000 г.;
13. Ўлмасов А. Иқтисодиёт асослари. Т.: Меҳнат, 1997 йил;
14. Дж. Локк. Два трактата о правлении. 1690. Соч., Т.3.М., 1988 г.;
15. В.В.Земсков "Кредитный механизм и интенсификация промышленного производства" Москва, Финстат, 1987 г.;
16. Н.Н.Валенцева. "Методы кредитования в Социалистическом хозяйстве". Москва. 1980 г.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100